


ISSN 2181-0000
Doi Journal 10.26739/2181-0000

JOURNAL OF MAMUN SCIENCE



Volume 4, Issue 2 **2026**

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

4 JILD, 2 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

TOM 4, HOMEP 2

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 4, ISSUE 2



«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «MA'MUN SCIENCE» | JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

№2 (2026) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-0000-2026-2>

Бош муҳаррир: | Главный редактор:
Chief Editor:

Matyakubov Umidjon Raximovich
(i.f.d., prof.)

Бош муҳаррир ўринбосари: | Заместитель
главного редактора: | Deputy Chief Editor:

Xudoynazarov Egambergan Madrahimovich
(PhD., dots.)

TAHRIRIY MASLAHAT KENGASHI | EDITORIAL BOARD | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

FILOLOGIYA FANLARI

O'rozboyev Abdulla Durdibayevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Axmedov Oybek Saporboyevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Galiyeva Margarita Rafaelovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Nasrullayeva Nafisa Zafarovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Samarqand davlat chet tillari instituti

Cho'ponov Otanazar Otojovich

Filologiya fanlari doktori (DSc)

Urganch davlat universiteti

Yakubova Matluba Tajibayevna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Matnazarov Javlanbek Kabulovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

TARIX FANLARI

Anatoliy Sagdullayevich Sagdullayev

Tarix fanlari doktori, professor; akademik

O'zbekiston Respublikasi Fanlar

akademiyasining haqiqiy a'zosi

Ashirov Adhamjon Azimbayevich

Tarix fanlari doktori, professor,

O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasi Tarix instituti.

Shaydurov Vladimir Nikolayevich

Tarix fanlari doktori, dotsent

Leningrad davlat universiteti Rossiya

Abdullayev Utkir Ismoilovich

Tarix fanlari doktori (DSc),

dotsent Urganch davlat universiteti

Matkarimova Sadoqat Maqsudovna

Tarix fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Timur Pulatovich

Tarix fanlari nomzodi, dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdalov Umidbek Matniyazovich

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

Yunusxo'jayev Habibulla Zafar o'g'li

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

PSIXOLOGIYA FANLARI

Shoumarov G'ayrat Baxromovich

Psixologiya fanlari doktori, professor; akademik

O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi

Kryukova Tatyana Leonidovna

Psixologiya fanlari doktori, professor

Kostroma davlat universiteti Belorusiya

Karpinskiy Konstantin Viktorovich

Psixologiya fanlari doktori, professor

Grodno davlat universiteti Belorusiya

Urazbayeva Dilbar Abdullayevna

Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Jumaniyazova Nasiba Ramatillayevna

Psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun

Universiteti NTM

IQTISODIYOT FANLARI

Ruzmetov Baxtiyar

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ma'mun Universiteti NTM

Sherov Alisher Bakberganovich

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Voronsova Yuliya Vladimirovna

Iqtisodiyot fanlari nomzodi

Moskva davlat boshqaruvi universiteti

Jabborov Umarbek Rustambekovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Cho'ponov San'at Otanazarovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Niyazmetov Islambek Masharipovich

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

PEDAGOGIKA VA FALSAFA FANLARI

Sardor Sharifzoda O'razboy Tabib o'g'li

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Adilov Zafar Yunusovich

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Boltayev Abdurahim Amanovich

Falsafa fanlari doktori, dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Zoirov Erkin Xalilovich

Falsafa fanlari doktori, dotsent

Buxoro davlat texnika universiteti

Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun

Universiteti NTM

TIBBIYOT FANLARI

Yuldashev Baxrom Sobirjanevich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Ravshanbek Babajonovich

Tibbiyot fanlari doktori, professor

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Esamuratov Aybek Ibragimovich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Samandarova Barno Sultonovna

Biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Tajiyeva Zebo Baxodirovna

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

ILMIY JURNAL TEXNIK KOTIBI

Yunusxo'jayev Habibulla Zafar o'g'li

Ma'mun Universiteti NTM

Журнал включен в перечень ВАК национальных научных изданий, рекомендуемых для публикации
основных научных результатов диссертаций по медицинским наукам постановлением
№ 01-08/3068/17 от 27 сентября 2024 г.

Page Maker | Верстка | Саифаловчи: X. Mirzaxmedov

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

FILOLOGIYA

1. **Djumanova Dilbar Raximovna, Bakiyeva Gulandom Xisomovna, Yuvasheva Shoiraxamamadovna**
MAQOLLARNING GENDERLIK: RUS VA INGLIZ TILLARIDA OILAVIY MUNOSABATLAR SEMANTIKASI.....6
2. **Xajiyeva Difuza Adambayevna**
HAMID OLIMJON SHE'RIYATIDA TABIAT TASVIRI: BAHOR, TOG' VA TUN POETIK SEMANTIKASI.....12
3. **Эргашева Дилфуза Камиловна**
ЦЕННОСТНЫЕ ТРАНСФОРМАЦИИ В СОВРЕМЕННОЙ РУССКОЙ ЖЕНСКОЙ ПРОЗЕ.....17
4. **Grigoryeva Mariya Vitalyevna**
RUS VA O'ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGIDA XRONOTOP (FAZOVIY KONFIGURATSIYA) NING BADIY VA FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI.....21

TARIX

1. **Abdullayeva Laylo**
O'RTA SINFNING SHAKLLANISHI VA UNING TARIXIY-NAZARIY ASOSLARI.....25
2. **SHeripov Umarbek Atajanovich**
MARKAZIY OSIYODA SUV XAVFSIZLIGI MUAMMOSI VA SIBIR DARYOLARINI BURISH LOYIHASI: TARIXIY TAJRIBA VA ZAMONAVIY GEOSIYOSIY TAHLIL.....30
3. **Kamolova Habiba Muhammadiyevna**
AMIR TEMUR VA SHAHRISABZ: TARIXIY MEROS VA ZAMONAVIY TARAQQIYOT....34
4. **Allaberganov Ollabergan Arslanbekovich**
1945–1956-YILLARDA XORAZM VILOYATIDA PENSIYA TA'MINOTI (YUTUQ, KAMCHILIK VA TAFOVUTLAR).....38
5. **Matyakubova Shaxodat Xamidjanovna**
V–XI ASRLARDA JANUBIY OROLBO'YI HUDUDIDA AHOLI TURAR-JOYLARINING MADANIY-XO'JALIK RIVOJI VA IQTISODIY-ETNOMADANIY MUNOSABATLAR (XORAZM ARXEOLGIK TADQIQOTLARI ASOSIDA).....43
6. **Jumaniyazova Intizor To'likinova**
MAMLAKATIMIZDA DINIY TA'LIM VA UNING HUQUQIY ASOSLARI.....48
7. **Alimova G'unchaxon Baxodirovna**
ARAB MUHAMMADXON VA UNING AVLODLARI DAVRIDA XIVA XONLIGINING MUSTAHKAMLANISHI.....52
8. **Г.А. Дадамирзаева**
УЗБЕКИСТОНДА ХУНАРМАНДЧИЛИК КООПЕРАЦИЯСИНИНГ ТАШКИЛИЙ-ҚУРИЛИШ ЖАРАЁНИНИНГ АМАЛГА ОШИРИЛИШИ.....56
9. **Mamasaidov Lutfillo Payzullo o'g'li**
TA'LIM TIZIMIGA KOMMUNISTIK G'OYALAR TATBIQI VA UNING IJTIMOIIY OQIBATLARI.....63
10. **Matkarimova Intizor Atabayevna**
AHOLINI RO'YXATGA OLIHNING JAHON TAJRIBASI.....69

FALSAFA

1. **Nurmatov Jaxangir Yeshbayevich, Turobov Bekpulat Nusratullayevich**
E.E.BERTELS ASARLARIDA NAVOIY MA'NAVIIY MEROSI TAHLILI.....76
2. **Bozorov Mustafu Jabborovich**
MIGRATSIYA JARAYONINING GENEZISI: IJTIMOIIY-FALSAFIY TAHLIL.....82

Kamolova Habiba Muhammadiyevna

tarix fanlari falsafa doktori, dotsent

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti

<https://orcid.org/0009-0008-7779-7130>**AMIR TEMUR VA SHAHRISABZ: TARIXIY MEROS VA ZAMONAVIY
TARAQQIYOT**<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.19007614>

Annotatsiya. Mazkur maqolada Amir Temur va Shahrisabz o'rtasidagi tarixiy bog'liqlik, mustaqillik yillarida Sohibqiron merosining qayta tiklanishi hamda shaharning tarixiy-madaniy taraqqiyoti tahlil qilinadi. 1996-yilda Amir Temur tavalludining 660 yilligi va 2002-yilda Shahrisabzning 2700 yilligi doirasida amalga oshirilgan davlat dasturlari, restavratsiya ishlari hamda xalqaro tadbirlar ilmiy asosda o'rganiladi. Shuningdek, shaharning UNESCO Jahon merosi ro'yxatiga kiritilishi uning xalqaro nufuzini mustahkamlashdagi ahamiyati yoritiladi.

Kalit so'zlar: Amir Temur, Shahrisabz, mustaqillik, tarixiy meros, YUNESKO, restavratsiya, milliy o'zlik.

Камолова Хабиба Мухаммадиевна

доктор философии (PhD) по историческим наукам, доцент

Университет экономики и педагогики

**АМИР ТЕМУР И ШАХРИСАБЗ: ИСТОРИЧЕСКОЕ НАСЛЕДИЕ И
СОВРЕМЕННОЕ РАЗВИТИЕ**

Аннотация. В статье анализируется историческая взаимосвязь между Amir Temur и городом Shahrisabz, процессы возрождения его наследия в годы независимости, а также историко-культурное развитие города. Рассматриваются государственные программы, реализованные в рамках 660-летия со дня рождения Амира Темура (1996 г.) и 2700-летия Шахрисабза (2002 г.), реставрационные работы и международные мероприятия. Особое внимание уделяется включению исторического центра города в Список всемирного наследия UNESCO и его значению для укрепления международного авторитета Узбекистана.

Ключевые слова: Амир Темура, Шахрисабз, независимость, историческое наследие, ЮНЕСКО, реставрация, национальная идентичность

Kamolova Habiba Muhammadiyevna

Doctor of Philosophy (PhD) in History, Associate Professor

University of Economics and Pedagogy

**AMIR TEMUR AND SHAKHRISABZ: HISTORICAL HERITAGE AND MODERN
DEVELOPMENT**

Abstract. This article analyzes the historical connection between Amir Temur and the city of Shahrisabz, as well as the revival of his legacy during the years of independence and the city's historical and cultural development. The study examines state programs implemented during the 660th anniversary of Amir Temur (1996) and the 2700th anniversary of Shahrisabz (2002), restoration projects, and international initiatives. Special attention is paid to the inclusion of the Historic Centre of Shahrisabz in the World Heritage List of UNESCO and its role in strengthening Uzbekistan's international cultural standing.

Keywords: Amir Temur, Shahrisabz, independence, cultural heritage, UNESCO, restoration, national identity.

Kirish. Mustaqillik yillarida Shahrisabzning tarixiy o'rnini va mavqegini tiklash, me'moriy obidalarini qaytadan restavratsiya qilish, shaharning madaniy qiyofasini yangilash mustaqillik tufayli xalqqa va yurtga qaytgan buyuk sohibqiron Amir Temur nomining va o'rnining qaytishi bilan bog'liq holda yuz berdi. Shahrisabzning mustaqillik davridagi O'zbekiston tarixi va madaniy hayotini buyuk sarkarda va davlat arbobi Amir Temur faoliyatidan hech ham ajratib bo'lmaydi[1].

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganidek, Amir Temurning Turkiston diyorini bosqinchilardan ozod etish yo'lidagi jasur harakatlari shu yurtdan boshlangan. Hazrati Temur o'z oldiga ulug'vor maqsadlarni qo'yishda, avvalo o'z eliga, o'z ona yurti – Keshga ishongan va tayangan[2].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida tarixiy-qiyosiy tahlil, arxiv hujjatlarini o'rganish, normativ-huquqiy hujjatlar tahlili, shuningdek, ilmiy adabiyotlarni solishtirma o'rganish metodlaridan keng foydalanildi.

Muhokama va natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Amir Temur merosining qayta tiklanishi milliy o'zlikni anglash jarayonini kuchaytirdi. 1994–1996-yillarda Amir Temur tavalludining 660 yilligini keng nishonlash bo'yicha davlat miqyosida qarorlar qabul qilindi[3]. Bu nafaqat yubiley tadbiri, balki tarixiy adolatni tiklash, milliy o'zlikni anglash va yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga xizmat qilgan muhim jarayon edi.

1996-yilning “Amir Temur yili” deb e'lon qilinishi, mamlakat bo'ylab ilmiy-amaliy konferensiyalar, madaniy tadbirlar va ko'rik-tanlovlarning o'tkazilishi Temuriylar merosini keng targ'ib qilishga xizmat qildi[4]. Shahrisabz shahrida Oqsaroy maydonida Amir Temur haykalining o'rnatilishi tarixiy xotiraning ramziy ifodasi bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996-yil 28-avgust Shahrisabz shahrini «Amir Temur» ordeni bilan mukofotlash to'g'risida PF-1554-son farmoni qabul qilindi[5].

Mustaqillik yillarida Shahrisabz shahrining tarixiy obidalarini restavratsiya qilish va obodonlashtirish ishlari keng ko'lamda amalga oshirildi. Ayniqsa, Amir Temur davrida bunyod etilgan yodgorliklar alohida e'tiborga olindi. 1996-yil 18-oktyabrda O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I. Karimov Shahrisabzga tashrif buyurib, Oqsaroy markazida barpo etilgan Amir Temur haykalini ochdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bilan Shahrisabz shahri aholisining Temuriylar davriga oid buyuk madaniy va ma'naviy merosni, nodir tarixiy yodgorliklarni saqlash va ularga avaylab munosabatda bo'lish, yosh avlodni buyuk ajdodlarga munosib voris, mustaqil Vatan buyuk kelajagini barpo etishga qodir bo'lish ruhida tarbiyalash ishidagi alohida xizmatlari uchun, Sohibqiron Amir Temur tavalludining 660 yilligi munosabati bilan Shahrisabz shahri Amir Temur ordeni bilan mukofotlangan edi. Shu kuni orden I. Karimov qo'li bilan shahar bayrog'iga taqildi[6].

Ayni yubiley arafasi va uni nishonlash jarayonida xorij davlatlarda (Fransiyaning poytaxti Parijda) ilmiy konferensiya va ko'rgazmalar bo'ldi, Shahrsabzda muzey ochildi, Oqsaroy binosi va uning atrofidagi maydon qayta obod etilib, Sohibqiron haykali o'rnatildi, Jahongir maqbarasi, Ko'kgumbaz majmuasida obodonlik va ta'mir ishlari hamda, arxeologik izlanishlar olib borildi. Amir Temur va Temuriylar davri OAV da hamda yuzlab maqola va asarlarda keng yoritildi. O'nlab dissertatsiyalar yoqlanib, ko'plab monografiya va risolalar chop etildi[7].

2000-yil 2-dekabrda UNESCO tomonidan Shahrisabz tarixiy markazi Jahon merosi ro'yxatiga kiritildi. Bu qaror shahar tarixiy-madaniy ahamiyatining xalqaro miqyosda tan

olinganini anglatadi. 2002-yilda Shahrisabzning 2700 yilligi YUNESKO ishtirokida keng nishonlandi. Ushbu yubiley shahar tarixida muhim voqea bo'lib, uning xalqaro nufuzini yanada oshirdi. Parij shahrida bo'lib o'tgan YUNESKO Bosh konferensiyasida mazkur yubileyini xalqaro miqyosda nishonlash tashabbusi ilgari surildi. Shuningdek, Shahrisabzga turli yillarda AQSH, Hindiston, Yaponiya, Germaniya va BMT vakillari tashrif buyurib, tarixiy obidalar bilan tanishdilar. Bu esa shahar diplomatik va madaniy aloqalar rivojida ham muhim o'rin tutganini ko'rsatadi.

YUNESKOning 2000-yilning 2-dekabrida Avstraliyada o'tkazilgan anjumanida Shahrisabzning tarixiy yodgorliklarini Jahon Merosi ro'yxatiga kiritish to'g'risida qaror qabul qilindi. Natijada ko'hna va hamisha navqiron Shahrisabz jahon tarixiy durdonalari ro'yxatiga kiritilishi bilan, bu shahar xorijda O'zbekistonni tanishtirish imkoniyatlarini yanada kengaytirdi.

2001-yil oktyabrda YUNESKO bosh konferensiyasining Parijda o'tkazilgan 31-sessiyasida O'zbekiston Prezidenti I.Karimov, Markaziy Osiyoning qadimiy shaharlaridan biri Shahrisabz shahrining 2700 yillik yubileyini 2002-yilda xalqaro miqyosda nishonlashga qaror qilinganligi tashabbusi bilan chiqdi[8].

2002-yil 29-martda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Shahrisabz shahrining 2700 yilligini nishonlashga tayyorgarlik ko'rish to'g'risida"gi qarori qabul qilindi[9]. Qarorda jahon tarixi va madaniyatida alohida o'rin tutgan Shahrisabz shahriga asos solinganligining 2700 yilligi munosabati bilan yubiley tadbirlarini 2002-yil noyabr oyida YUNESKO ishtirokida o'tkazishni tashkil etish ko'zda tutildi[10].

Qarorda yubiley munosabati bilan Shahrisabzning me'moriy yodgorliklarini ta'mirlash va yangilash, shahar tarixini o'rganish bo'yicha ilmiy-amaliy anjumanlar o'tkazish, aholi o'rtasida targ'ibot-tashviqot ishlari olib borish hamda shaharni obodonlashtirish va qiyofasini zamonaviylashtirish yuzasidan vazifalar belgilandi.

Shahar hududidagi o'nlab Amir Temur va temuriylar davrida bunyod etilgan qadimiy obidalarda ta'mirlash ishlari boshlab yuborildi. Shahar yubileyi munosabati bilan Oqsaroy, Doruttilovat, Dorus-siyodat majmualari, Chorsu savdo gumbazi, Chubin madrasasi kabi tarixiy obidalar ta'mirlandi. Shaharda qurilish, obodonlashtirish, aholini gaz va ichimlik suvi bilan ta'minlash, sog'liqni saqlash va kommunal xizmat ko'rsatish borasida keng ko'lamli ishlar olib borildi.

2002-yil 1-noyabrda Shahrisabzning 2700 yilligi jahon miqyosida keng nishonlandi. Shahrisabzning 2700 yillik yubileyini o'tkazilishi nafaqat O'zbekiston, balki shahar tarixida unutilmas voqea bo'ldi. Shahar ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jihatdan Qashqadaryo viloyatida Qarshi shahridan keyin ikkinchi shaharga aylanish davrini boshlab berdi.

Istiqlol tufayli bu go'zal maskan, "Qashqa vohasining zumrad gavhari" tom ma'noda tarixiy qudratini qayta tikladi. 2001-yilning 18-oktabridan, bu kun Shahrisabz kuni sifatida nishonlanib kelinadi. Amir Temurdek buyuk insonning beshigini tebratgan bu shahar markazidagi yodgorliklar 2000-yilda YUNESKO ning "Umumjahon madaniy merosi" ro'yhatiga kiritildi.

Xulosa. Amir Temur va Shahrisabz o'rtasidagi tarixiy bog'liqlik O'zbekiston davlatchiligi va milliy o'zlik timsolidir. Mustaqillik yillarida Sohibqiron nomi va merosining qayta tiklanishi Shahrisabz shahrining tarixiy mavqeini yanada mustahkamladi. Shahrisabzning YUNESKO Jahon merosi ro'yxatiga kiritilishi, 2700 yillik yubileyining xalqaro miqyosda nishonlanishi, me'moriy obidalarining restavratsiya qilinishi va ilmiy tadqiqotlarning kengayishi — bularning barchasi milliy merosga bo'lgan e'tiborning amaliy ifodasidir. Bugungi kunda Shahrisabz nafaqat tarixiy xotira maskani, balki zamonaviy taraqqiyot yo'lidan borayotgan, turizm va madaniyat markaziga aylangan shahar sifatida rivojlanmoqda. Sohibqiron Amir Temur merosi esa xalqimizning milliy g'ururi va ma'naviy tayanchidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Оқилхон Одилхон. Темур ва Улуғбек даври тарихи. Т.: 1996. Б.5-9 (сўз боши).
2. Каримов И.А. Соҳибқирон камолга етган юрт. / Амир Темур ҳақида сўз. – 37 б.

3. Вазирлар Маҳкамасининг “Амир Темур таваллудининг 660 йиллигини нишонлаш тўғрисида” қарори. <https://www.lex.uz/docs/2329020>, Ўзбекистон Республикаси Президентининг “1996 йилни Амир Темур йили деб эълон қилиш тўғрисида”ги фармони. <https://www.lex.uz/docs/276338>
4. Эътироф // Шаҳрисабз тонги, 1996 йил 12 апрель.
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Шаҳрисабз шаҳрини «Амир Темур» ордени билан мукофотлаш тўғрисида”ги фармони. <https://www.lex.uz/docs/2380247>
6. Халқ сўзи, 1996 йил 19 октябрь.
7. Амир Темур сиймосининг миллий матбуотда ёритилиши. – Тошкент, 2009. – 350 б.; Абиджанова Д.С. Маверауннахр эпохи правления Амира Тимура в англоязычной историографии 60-90-х годов XX в. Автореф. дис. канд ист. наук. – Ташкент: ИИ АН РУз., 2001.–26с.; Усмонов Б.А.Темур ҳаёти ва давлатчилиқ фаолиятининг Россия тарихшунослигида ёритилиши. Тарих фан.ном. дисс. – Тошкент: ЎзФА ТИ, 2004. – 156 б.; Ўлжаева Ш. Амир Темур ва Темурийлар даврида миллий давлатчилиқнинг ривожланиши. – Тошкент: Фан, 2005. – 268 б.
8. Жўракулов О., Рахматов А. Шаҳрисабз йилномаси. -Т. Фан, 2007. –40 б.
9. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Шаҳрисабз шаҳрининг 2700 йиллигини нишонлашга тайёргарлик кўриш тўғрисида”ги қарори. <https://lex.uz/docs/1677083>
10. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Шаҳрисабз шаҳрининг 2700 йиллигини нишонлашга тайёргарлик кўриш тўғрисида”ги қарори. <https://lex.uz/docs/1677083>

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE» JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

Maqolani tayorlashda qo'yiladigan talablar:

1. Maqola o'zbek, ingliz va rus tillarida minimal 6 sahifadan iborat bo'lib, Microsoft Word dasturida Times New Roman shriftida 12 kegl, 1 satr oralig'ida, sahifalar barcha tomondan 2 sm qoldirilgan holda bo'lishi shart.
2. Satr boshi - 1,25 sm bo'lib, satrlarni eniga to'g'irlash, so'zlarni boshqa qatorga ko'chirish avtomatik tarzda bo'lishi lozim.
3. Birinchi qator o'ng tomondan muallifning familiyasi, ismi va otasining ismi, ikkinchi qatorda muallifning ish joyi, lavozimi, ilmiy darajasi va unvoni, e-mail va telefon raqami, uchinchi qatorda sahifaning o'rtasida bosh va qalin harflar bilan maqolaning nomi yoziladi. Ushbu ma'lumotlar o'zbek, ingliz va rus tillarda berilishi lozim.
4. Keyingi qatordan o'zbek, ingliz va rus tillarida 60 so'zdan iborat annotatsiya beriladi.
5. Keyingi qatordan 7-10 ta o'zbek, ingliz va rus tillarida kalit so'zlar beriladi.
6. Keyingi qatordan asosiy matn boshlanadi va maqola 4 qismdan iborat bo'ladi: Mavzuning dolzarbligi. Metodlar va o'rganilganlik darajasi. Tadqiqot natijalari. Xulosa.
7. Maqolalar ilmiy ahamiyatga ega bo'lib, ulardagi fakt va fikrlar asoslangan hamda mustaqil ma'no kasb etishi lozim, plagiat holati taqiqlanadi. Muallif foydalanilgan adabiyotlarni aniq ko'rsatishi, olingan iqtiboslarning aniq manbalarini keltirishi lozim.
8. Web of science hamda Scopus tizimidagi jurnallardan iqtiboslar olish maqsadga muvofiqdir.
9. Iqtiboslar matn ichida [1, 25] beriladi. Adabiyotlarning to'liq ro'yxati asosiy matndan so'ng alifbo tartibida ko'rsatilishi lozim.

Требования к оформлению научной статьи:

1. Статьи должны содержать 6 страниц, в формате Times New Roman на Microsoft Word, 12 кегль, 1 см, со всех сторон 2 см.
2. Начала абзаца - 1,25 см, формировать строки по ширине, перенос слов в другой ряд должен быть в автоматическом порядке.
3. В первой строке от правой стороны Ф.И.О. автора, во второй строке место работы, должность, ученая степень и ученое звание, e-mail и номер телефона, в третьей строке по центру страницы прописными буквами жирным шрифтом название статьи. Эта информация должна быть предоставлена на узбекском, английском и русском языках.
4. В следующей строке аннотация из 60 слов на трех языках: узбекский, английский и русский.
5. Со следующей строки ключевые слова 7-10.
6. Далее начинается основной текст. новой текст начинается со следующей строки, и статья состоит из 4 частей: актуальность темы, методы и уровень исследования, результаты исследования, заключение.
7. Статьи должны иметь научное значение, факты и идеи должны быть обоснованными и избежать плагиатства. Автор должен точно указать использованную литературу и ссылку на источники, при помощи которых он выразил свое мнение.
8. Сноски или ссылки должен быть взяты из Web of science, а также системы журналов Scopus.
9. Цитирование приводится в тексте [1, 25] Полный список литературы должен быть указан после основного текста, а алфавитном порядке.

Requirements of the articles submitted:

1. Articles should be at least 6 pages, in Times New Roman, 12 pt., 1 inter.
2. The line head should be 1,25 cm, line spacing, and the words should be automatically moved.
3. The author's full name should be on the first line from the right; the author's place of work, position, academic degree, and academic rank, email address, and phone number should be on the second line; the article title should be centered in bold, capital letters, on the third line. This information should be provided in Uzbek, English, and Russian.
4. An annotation of 60 words in the next line in three languages.
5. Key words from the next row in three languages 7-10.
6. The next line begins with the main text. The main text begins on the next line, and the article consists of four parts: the relevance of the topic, the methods and level of research, the results, and the conclusion.
7. Articles must be of scientific importance and facts and opinions in the article should be well-grounded and have an independent meaning, and they must be free of plagiarism. The author must clearly demonstrate the literature used in his or her opinion, and provide the exact sources of the extracts.
8. Quotes should be from "Web of science" and "Scopus" journals.
9. A complete list of publications should be followed in alphabetical order after the main text. Seals and references should be in the main text [1, 25].